



UDN:81373.21(575.114)

Xolida DAVUROVA,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail.ru davurova72@bk.ru

Turon fanlar akademiyasi akademigi, professor S.Yakubov taqrizi asosida

TOPONIMS DERIVED FROM PROPER NAMES (BASED ON THE EXAMPLE OF JIZZAKH REGION)

Annotation

This article analyzes the lexical features of oikonims derived from personal names in the Jizzakh region. It is revealed that the oikonims were formed not only from people's first names, but also from their surnames, nicknames, and pseudonyms, based on data about the administrative-territorial structure of the region and scientific literature.

Key words: Anthroponym, oikonim, anthropoikonim, transanimization, myth, nicknames, pseudonym.

ОЙКОНИМЫ, ОБРАЗОВАННЫЕ ОТ ИМЕН СОБСТВЕННЫХ (НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

В данной статье проанализированы лексические особенности ойконимов, образованных от имён собственных в Джизакской области. Раскрыто, что ойконимы формировались не только от имён людей, но также от их фамилий, прозвищ и псевдонимов, на основе данных об административно-территориальной структуре области и научной литературы.

Ключевые слова: Антропоним, ойконим, антропоойконим, трансанимизация, миф, прозвища, псевдоним.

ATOQLI OTLARDAN HOSIL BO'LGAN OYKONIMLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Jizzax viloyatidagi atoqli otlardan hosil bo'lgan oykonimlarning leksik xususiyatlari tahlil etilgan. Oykonimlar nafaqat kishilarning ismlaridan, balki familiyalari, taxalluslari va laqablaridan ham shakllanganligi viloyatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Antroponim, oykonim, antropooykonim, transanimizatsiya, mif, tahallus, laqab.

Kirish. Antroponimlarga kishilar ismi, familiyasi, otasining ismi va taxallusi hamda laqablari kiradi. Kishi ismlari va familiyalari, laqab hamda taxalluslari orqali ma'lum bir joy nomlarining atalish hollari uchraydi. Ular asosida shakllangan turar joy nomlari antropooykonimlar deb ataladi.

Antropooykonimlar uzoq tarixiy davr mahsuli bo'lib, ularning vujudga kelishi anchagina qadimiydir. Ushbu turga mansub oykonimlar jamiyatda sinflarning paydo bo'lishi va mulkdorlik tuzumining vujudga kelishi bilan yaratila boshlangan. Xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning shakllanishi natijasida bunday nomlar yanada ko'paygan. Yerning har bir parchasi kimningdir xususiy mulki bo'lgan bir paytda, tabiiyki, uning egasining ismi asosiy farqlovchi belgiga aylangan [5]. Natijada, joy nomlari katta yer egalari, amaldorlar, urug' va qavm boshliqlari, mahalliy hukmdorlarning ismi, familiyasi yoki laqabi bilan ataladigan bo'lgan.

Jizzax viloyati bo'yicha to'plangan oykonimlarga oid ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'tmishda kishilarning ismi-sharifi, familiyasi va laqabi, ya'ni atoqli otlarning joy nomlariga o'tishi turli xil usullarda vujudga kelgan. Ushbu usullar bilan shakllangan oykonimlarga Jizzax viloyati hududidagi atoqli otlardan shakllangan oykonimlar asosida kengroq izoh berildi.

Tahlil va natijalar. Kishilarning ismi bilan atalgan oykonimlar – antropooykonimlar hisoblanadi. Ushbu holatda kishining ismi biron-bir grammatik shaklni qabul qilmaydi va ularsiz joy nomi, ya'ni oykonimga aylanadi. Jumladan, Abay, Abdukarim (Forish tumani), Misirali, O'rol (Zomin tumani), O'smat, Tog'ay, Shodmon, Xoltoy, Bo'ron, Do'smat, Mirtemir, Zebiniso (Baxmal tumani), Umar (Sharof Rashidov

tumani), Yorqin (Zafarobod tumani), Dilorom (Paxtakor tumani), Iskandar (Yangiobod tumani), Shuhrat (Arnasoy tumani) va boshqalar.

S. Ahmedov o'z tadqiqotida kishi ismi bilan shakllangan oykonimga Oysara qishlog'i nomini misol tariqasida keltiradi. Dastlab ushbu qishloq joylashgan joy soylik va to'qayzordan iborat bo'lib, hyech kim yashamagan. Oysara ismli ayol yosh bolalari bilan bu yerda terakzor, bog'lar va chorva tashkil etgan bo'lsa, keyinchalik qarindoshlari ham ko'chib kelgan. Asta-sekin bu yerda katta qishloq paydo bo'ladi. Hozirda mazkur qishloq ushbu ayolning ismi bilan ataladi [1].

Ba'zi oykonimlar tarkibida boy, bek, xon, xo'ja, so'fi, eshon so'zlari mavjud kishi ismlari ham uchraydi. Xususan, viloyatning turli tumanlarida Yo'ldoshboy, Mamirboy, (Baxmal tumani), Temirxon, Qoraboy, Shoybek, To'liboy, Tog'ayso'fi (Forish tumani) kabi oykonimlar mavjud. Mazkur oykonimlarning asosida etnonimlar yotadi, degan fikrlar ham mavjud [4]. Ushbu fikrga to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki mazkur toponimlar kishilarning ismidan kelib chiqqanligi manbalarda ham qayd qilingan.

Jizzax viloyati oykonimlari tizimida kishi ismi bilan to'p so'zining birikishidan tuzilgan oykonimlar ham uchraydi. Ushbu oykonimlar tarkibidagi "to'p (to'pa)" atamasi ma'lum bir qishloqning bir qismini ifodalaydi. Odatda, o'troq o'zbeklar yashaydigan yirik qishloqlar to'plarga bo'linib, har bir to'p tarkibiga bir qancha qon-qarindosh oilalar kirgan. Ko'pincha ajdodlari yagona bo'lgan oilalar bir to'pni tashkil etib, mazkur to'p bobosi nomi bilan atalgan. Shuningdek, ba'zi to'plar kichik urug'ning nomi, berilgan laqabi, kasbkori, toifasi bilan ham nomlangan [9]. Masalan, Jizzax viloyati Baxmal tumanida

Shodmonto'bi deb nomlangan qishloq mavjud bo'lib, yuz urug'i tarkibiga kirgan Solin to'pining bir tarmog'i Shodmonto'bi deb atalgan [8]. "Shodmonto'bi" oykonimi kishi ismi va "to'p" so'zining birikishidan hosil bo'lgan.

Kishi ismiga ota, bobo, obod so'zlaridan birining qo'shilishi asosida ham oykonimlar vujudga keladi. Jumladan, Forish tumanidagi Haydarota, Xasanota, Safarota qishloqlari, G'allaorol tumanidagi Davronbobo guzari, Sharof Rashidov tumanidagi Axtamota, Parpata (Parpiota), Yorqinobod, Fayzobod qishloqlari, Zafarobod tumani, Jizzax shahridagi Hamzaobod, Xayrobod mahallalarining nomlari xuddi shunday hosil bo'lgan. Shuningdek, Do'stlik tumanidagi Davlatobod va Islomobod, Paxtakor tumanidagi Suvonobod, Yangiobod tumanidagi Meliobod, Baxmal tumanidagi Hayitobod hamda Murodobod [2] toponimlarining nomi ham shunday oykonimlari sirasiga kiradi.

Kishi ismi va indikatorlar, ya'ni toponomik aniqlagichlar birikuvi asosida shakllangan oykonimlar. Bunday holatda shaxs otlariga tepa, ovul, quduq, ravot, kent, qishloq, qo'rg'on, cho'p, qo'ton, jar kabi so'zlarni qo'shish orqali antropooykonimlar hosil bo'lgan. Masalan, Jizzax viloyati Zomin tumanida Eshmatovul deb nomlangan qishloq mavjud. Ushbu oykonim kishi ismi bilan atalgan bo'lib, "Eshmat bunyod etgan qishloq" degan ma'noni anglatadi [11].

Zomin tumanidagi yana bir oykonimni bunga misol qilib keltirish mumkin. Hayitqulpepa qishlog'ida tepa borligi va ushbu tepani Hayitqul degan shaxs bunyod etgan degan fikrlar mavjud [7]. Ushbu nomlar hozirda kishi ismi va indikatorlardan tuzilgan hamda ular sintaktik birikma hosil qilgan. Demak, Eshmatovul – Eshmatning ovuli, Hayitqulpepa – Hayitqul bunyod etgan tepa demakdir.

To'plangan dala materiallari asosida G'allaorol tumanida Zokirovul [2] qishlog'i borligi aniqlandi. Ushbu toponim ham xuddi shu ma'noni anglatadigan oykonim hisoblanadi.

Jizzax viloyati antropooykonimlarni tarkibida kishilarning familiyasi, taxallusi hamda kishi laqablarining ham joy nomlariga ko'chganini kuzatish mumkin.

Jizzax viloyati hududida kishilarning familiyalari asosida shakllangan joy nomlariga A. Ikromov (Paxtakor tumani), Y. Oxunboboyev (Sharof Rashidov tumani), E. Yusupov, B. Fayziyev (Arnasoy tumani), B. Nazarov (Sharof Rashidov tumani), X. Abdurjabborov (Jizzax shahri), B. Ibragimov, I. Karimov (Baxmal tumani), Fozil Yo'ldosh (Zarbdor tumani) kabi antropooykonimlarni qayd etish mumkin.

Kishilarning taxallusi bilan atalgan antropooykonimlarga Zarbdor tumanidagi Oybek, Do'stlik, Sharof Rashidov, Zarbdor va Zomin tumanlaridagi Navoiy, Zomin hamda Sharof Rashidov tumanlaridagi Ulug'bek qishloqlari, Arnasoy tumanidagi Bobur mahallasi nomlarini misol qilib keltirish mumkin.

Viloyati oykonimlari tarkibida kishi laqablari asosida shakllangan oykonimlar ham uchraydi. Masalan, G'allaorol tumanida Ko'sa deb nomlangan qishloq mavjud. O'z navbatida, qadimda qo'ng'iro't qabilasining voxtamg'ali bo'limining bir shoxobchasi ko'sa deb atalgan. Shuningdek, qipchoq, kenagas va laqay qabilalarining tarkibida ham ko'sa urug'i mavjud [8]. Ko'sa so'zi nafaqat urug' nomini, balki laqab ma'nosini ham ifodalaydi. Demak, ushbu oykonimning hosil bo'lishida "ko'sa" laqabi asos bo'lib xizmat qilgan.

G'allaorol tumanidagi yana bir qishloqning nomi Mirzakesak deb ataladi. Chunki, qirg'izlarning bir urug'i nomi "kesak" bo'lib, Mirzakesak esa ushbu urug'ning bir tarmog'i hisoblanadi. "Mirzakesak" oykonimi kishi ismi va laqabi asosida shakllangan. Ushbu antropooykonimlar tarkibidagi

ko'sa, kal, kesak, soqov so'zlari laqab ma'nosidan tashqari, patronim hamda etnonim ham sanaladi [6].

S.N. Ahmedov Jizzax viloyati toponimiyasida laqablar asosida vujudga kelgan joy nomlari mavjudligini ta'kidlab, ularga Zomin tumanidagi Sarimesh, Sultondev, Sultonqayqi, Abdidevona va Abdigarang [1] kabi toponimlarni misol sifatida keltiradi.

Shuningdek, antropooykonimlar quyidagi nomlarda ham ifoda qilingan: 1) adabiyot va madaniyat arboblari. – shoirlar, yozuvchilar, artistlar, olimlar va rassomlar nomi bilan bog'liq nomlar. Jumladan, Sh. Rashidov – Zomin tumanidagi qishloq. O'zbekistonning davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidovich Rashidov nomi bilan atalgan.

K.A. Temiryazev – Zafarobod tumanidagi qishloq. Tabiatshunos darvinist, o'simliklar fiziologiyasi maktabining asoschisi Kliment Arkadevich Temiryazev nomiga qo'yilgan. H. Olimjon – Jizzax shahridagi mahalla. Buyuk o'zbek shoiri, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi Hamid Olimjon nomi bilan atalgan.

H.N. Hamza – Do'stlik va Zomin tumanlaridagi qishloq. Shoir, yozuvchi, dramaturg, pedagog, teatr arbobi Hamza Hakimzoda Niyoziy nomiga qo'yilgan qishloq. G'afur G'ulom – Arnasoy tumanidagi mahalla. O'zbekiston xalq shoiri, akademik nomi bilan atalgan.

Abdulla Qodiriy – G'allaorol tumanidagi mahalla. Oykonim shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o'zbek adabiyotida roman janri asoschisi nomi bilan bog'liq joy nomidir;

2) kosmos zabtkorlari nomi bilan atalgan oykonimlar. Yu. A. Gagarin shahri – Jizzax viloyati, Mirzacho'l tumanidagi shahar. Oykonim jaxonning birinchi kosmanavti Yuriy Alekseevich Gagarin nomi bilan atalgan;

3) respublikamizning mashhur paxta ustalari nomlari bilan atalgan oykonimlar. Bularga M. Dadajonov – Do'stlik tumanidagi posyolka nomini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mashhur paxtakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan mexanizator, Mehnat qaxramoni Mamajon Dadajonov nomi bilan atalgan.

Jizzax viloyati antropooykonimlari tarkibida mif bilan bog'liq joy nomlarini ham uchratish mumkin. Mif (yun. mifos–afsona, rivoyat, asotir) –qadimiy odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi. Miflar asosan, jonli og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilinadi [10].

Miflarga asoslangan antropooykonimlarga Paxtakor tumanidagi To'maris – aholi punkti nomini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu joy nomi xuddi shunday antropooykonimlar sirasiga kiradi [3]. "To'maris" qadimgi yunon muarrix Gerodotning "Tarix"– Markaziy Osiyo xalqlari orasida kitobida aks etgan qahramon, jasur ayol va sarkarda haqidagi afsonadir. U massagetlar yurtiga bostirib kirgan bosqinchi Eron shohi Kir II ga qarshi kurashgan. U xalq ozodligi, yurt mustaqilligi va mamlakat erki uchun kurashga boshchilik qilgan. Eron shohi Kir II ni yengib, o'z yurti va xalqini qaram bo'lishdan saqlab qolgan erksevar ayoldir [7].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mavzuga oid ilmiy adabiyotlarga tayangan holda Jizzax viloyati hududidagi antropooykonimlar kishilarning ismlari, familiyalari, taxalluslari va laqablari ilmiy tahlil etildi. Shu bilan birga, oykonimlar tarkibida mashhur olimlar, yozuvchilar, shoirlar, davlat arboblari hamda mehnat faxriylarining ismi-shariflaridan transanimizatsiya jarayonlari natijasida antropooykonimlar paydo bo'lganligi ochib berildi.

ADABIYOTLAR

1. Аҳмедов С.Н. Жиззах вилояти топонимларининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалс. докт (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2019.– 148 б.
2. Davurova X.H. Jizzax viloyati oykonimlarining lisoniy tadqiqi. Monografiya. – Tashkent: Best-Publish, 2024. – 140 b.
3. Jizzax viloyatining ma'muriy-hududiy tuzilishiga oid ma'lumotlar. – Jizzax, 2013.
4. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана по этнографическим данным. – М.: Наука, 1976. – 323 с.
5. Никонов В.А. Введение в топонимику. – М.: Наука, 1965. – 179 с.
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1988. – 288 б.
7. Нафасов Т., Турсунов Ш. Қарши шаҳри маҳалла ва кўча номлари. – Тошкент, 2008. – 168 б.
8. Ўринбоев Б. Ў. Жиззах топонимларнинг таъбири. – Самарқанд, 2007. – 80 б.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. IX- жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 703 б.
10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. VI жилд. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2003. – 703 б.
11. Ҳақимов Қ. М. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: Сангзор, 2014. – 203 б.